

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'ri 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'ri 16

FALSAFA

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erk fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlarini 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn A'zamning ontologik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'ri 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'ri 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'ri va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 1(091) + 35(091)

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI-YURTIMIZDA INSON QADRINI OSHIRISH HAMDA MA'NAVIY SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDAGI ISLOHOTLAR ASOSI SIFATIDA

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА – ОСНОВА РЕФОРМ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО УРОВНЯ И УЛУЧШЕНИЮ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА В НАШЕЙ СТРАНЕ

THE DEVELOPMENT STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN IS THE BASIS FOR REFORMS TO INCREASE HUMAN DEGREE AND IMPROVE SPIRITUAL CAPACITY IN OUR COUNTRY

Sharipov Abduxakimjon Ziyoidtinovich 

Buxoro davlat pedagogika instituti professori, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri.

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning ma'no-mohiyati haqida so'z boradi hamda uning quyidagi uchta darajada namoyon bo'ladigan tarixiy ahamiyati alohida ta'kidlab o'tilgan. Birinchisi – "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning milliy darajadagi ahamiyati. Ikkinchisi – "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning mintaqaviy darajadagi ahamiyati. Uchinchi – "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning xalqaro (global) darajadagi ahamiyatining mohiyati ochib berilgan. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalar atroflicha tahlil etilgan bo'lib, mamlakatimizda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllangan. Ya'ni, "Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – oliy qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqdaligi tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются смысл и суть «Новой стратегии развития Узбекистана», подчеркивается ее историческое значение, которое проявляется на следующих трех уровнях. Первое – это национальное значение «Новой стратегии развития Узбекистана». Во-вторых, значимость «Новой стратегии развития Узбекистана» на региональном уровне. В-третьих, раскрывается суть международного (глобального) значения «Новой стратегии развития Узбекистана». Тщательно проанализированы приоритетные направления и важнейшие задачи, обозначенные в стратегии развития, и в нашей стране сформирована совершенно новая национальная правовая система. То есть, проанализировано, что признается принцип «Человек, его права, свободы, особенно его достоинство — высшая ценность».

Abstract

This article discusses the meaning and essence of the "New Uzbekistan Development Strategy" and emphasizes its historical significance, which is manifested at three levels. The first is the significance of the "New Uzbekistan Development Strategy" at the national level. The second is the significance of the "New Uzbekistan Development Strategy" at the regional level. The third is the significance of the "New Uzbekistan Development Strategy" at the international (global) level. The priority areas and most important tasks set out in the Development Strategy are analyzed in detail, and a completely new national legal system has been formed in our country. That is, the principle that "A person, his rights, freedoms, especially his dignity are the highest value" is recognized is analyzed.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Inson qadri, ta'lim, fan, ma'naviy-huquqiy meros, inson huquqlari, barqaror taraqqiyot, ma'naviy etuklik.

Ключевые слова: Новая стратегия развития Узбекистана, человеческое достоинство, образование, наука, духовное и правовое наследие, права человека, устойчивое развитие, духовная зрелость.

Key words: New Uzbekistan Development Strategy, Human dignity, education, science, spiritual and legal heritage, human rights, sustainable development, spiritual maturity.

KIRISH

O'zbekistonda yurtdoshlarimizning roziligiga erishish, ularning qadr topishiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezidentimiz raisligida o'tkazilayotgan biror yig'ilish yo'qki, unda xalqimizni o'ylantirayotgan masalalar, ayniqsa, aholining ehtiyojmand qatlami ijtimoiy himoyasida so'z yuritilmagan bo'lsa. Inson qadri mamlakatimizda birinchi o'ringa chiqdi. Har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali

FALSAFA

tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berish ham inson qadrlanayotganining belgisi.

Inson qadr topsa, ijtimoiy himoyasi ta'minlanganligini his qilsa, unda yaratuvchanlik, izlanish, o'z ustida ishlash va hayotdan rozilik kayfiyati baland bo'ladi. Shu bois, mamlakatimizda insonni e'zozlash, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadidagi ulkan islohotlar davom ettirilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar quruq raqamlarda emas, balki aholining kundalik hayoti, ro'zg'orida, dasturxonida o'z aksini topmoqda. Agar yurtimizda yashayotgan oilalar hayotini shu nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan davrda qanday salmoqli natijalarga erishganimiz ayon bo'ladi. To'g'ri, muammolar bor. Uni inkor etmaymiz. Ammo Prezidentimiz boshchiligidagi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj va ehtiyojmand qatlamini hisobga olish, ularga pensiya va nafaqalar tayinlash, kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlash borasida ishlarimiz ko'lamini yanada kengaytirilayotgani bor haqiqat. Birgina 2022 yilning birinchi choragida respublikamiz bo'ylab 218 ming kishiga 337.724 million so'm miqdorida ijtimoiy yordam ko'rsatildi, oxirgi yillarda bu yanada katta summani tashkil qilmoqda.

Bunga birgina yaqqol misol: "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilinganida 94 ta maqsaddan iborat bo'lgan. Jamoatchilik muhokamalari yakunidan so'ng Taraqqiyot strategiyasidagi ushbu maqsadlar soni 100 ta etib belgilangan.

Ularning eng asosiylari quyidagilarni tashkil etadi.

- *inson qadrlarini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish*

- Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

- Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'iniga aylantirish.

- Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

- Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish.

- Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

- Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

- Mamlakatdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.

- Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash.

- "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga etkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish.

- Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

- Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

- Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "Davlat - inson uchun" degan ezgu g'oyani hayotga tatbiq etish maqsadida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini bevosita xalqimiz bilan maslahatlashib, odamlarimizning fikr va takliflari asosida ishlab chiqdik".

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma'no-mohiyati haqida so'z borganda, uning quyidagi uchta darajada namoyon bo'ladigan tarixiy ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Birinchisi - Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining milliy darajadagi ahamiyati. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradiki, yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya'ni "Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri - oliy qadriyat", degan tamoyil e'tirof etilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat - jamiyat - inson" tamoyili "inson - jamiyat - davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda. Yanada sodda qilib aytganda, O'zbekistonda har bir fuqaroning qadrini yuksaltirish va farovonligini oshirish zarurligiga urg'u berilmoqda.

Eng asosiysi, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi 7 ustuvor yo'nalishning bosh g'oyasi - inson qadrini ta'minlash. Chunki Prezidentimizning saylovoldi dasturidagi asosiy g'oya ham "Inson qadri uchun" tamoyili edi.

Inson qadrini joyiga qo'yishni qonuniy va tashkiliy-huquqiy yo'llar bilan hayotimizning barcha sohalarida milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik darajalarida qanday qilib amalga oshirish kerak? Taraqqiyot strategiyasida bu dolzarb savolga juda ko'plab aniq maqsadlarga qaratilgan amaliy javoblar bor.

Ikkinchisi - Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mintaqaviy darajadagi ahamiyati. Taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadlarda Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida yaqin qardoshlikni qadrlash, qo'shni mamlakatlar bilan manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishish bo'yicha muhim vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Uchinchisi - Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining xalqaro (global) darajadagi ahamiyati. Taraqqiyot strategiyasida BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish, xususan, iqlim, ekologiya, terrorizm, korrupsiya, migratsiya, kambag'allik kabi global muammolarni hal etish borasida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish haqida so'z borgan.

Ya'ni O'zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish bilan bog'liq ibratli amaliyotni izchil davom ettirish lozim. Bunda O'zbekiston rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirishni ta'minlash, BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, ulkan ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot strategiyasida, shuningdek, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish, BMTning "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish istiqbollari ko'rsatib berilgan.

Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining nafaqat nomlanishi, ayni chog'da unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar va muhim vazifalar ham milliy yoki mintaqaviy miqyosdagina emas, balki global darajada ulkan ahamiyatga molik xalqaro hujjatlar bilan uyg'un va hamohangdir.

Dastlab Harakatlar strategiyasida, endilikda esa Taraqqiyot strategiyasida ham O'zbekiston bajarishni o'z zimmasiga olgan BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq milliy dasturi belgilab berildi.

Boshqacha aytganda, O'zbekiston tashqi xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida o'zining BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan hamohang holda rivojlanishi, bu boradagi o'ziga xos o'rni va ahamiyati, yanada muhimi, ibratli tajribasini butun dunyoga ko'rsata oldi. O'z navbatida, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu muhim taraqqiyparvar jarayon uzluksiz davom etayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan Taraqqiyot huquqi to'g'risidagi konvensiya loyihasi ishlab chiqilyapti. Qolaversa, 35 yildan buyon Taraqqiyot huquqi to'g'risidagi deklaratsiya amal qilmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti taqdim etgan Taraqqiyot strategiyasi xalqaro hamjamiyatning rivojlanish tendensiyalariga, butun dunyoning taraqqiyot trendlariga to'la mos keladi.

Yangi O'zbekiston mafkurasi mehribonlik, insonparvarlik sifatida namoyon bo'ladi. Mafkura haqida fikr yuritganimizda birinchi navbatda, aql - idrokni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Ular xalqimizning ming yillik hayotiy g'oyalari va qadriyatlariga asoslanadi. Ma'lumki, bugungi murakkab global o'zgarishlar sharoitida dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashtirish sharoitida milliy o'ziga xoslik va ma'naviy qadriyatlarga tahdid va qiyinchiliklar tobora ko'payib bormoqda. Odamlar, ayniqsa, yoshlar ongida egotsentrizm, ishga, oilaga, iste'mol madaniyatiga beparvo munosabat turli yo'llar bilan olib kirilmoqda.

O'zbek xalqining ma'naviy hayotining mohiyatini, ijtimoiy-madaniy muammolarini va ijtimoiy-siyosiy parametrlarini atroflicha tahlil qilish, jamiyatni o'zida birlashtira oladigan milliy g'oyani shakllantirish vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Har qanday holatda ham milliy g'oyani rivojlantirish mamlakatdagi siyosiy jarayon dinamikzimga, birinchi navbatda, g'oyaviy-mafkuraviy

FALSAFA

kurash natijasida paydo bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy paradigmalarning mohiyatining tub o'zgarishiga bog'liq. Bunday sharoitda, islohotlarning asosini tashkil etuvchi yaxlit mafkuraviy platformani yaratish va uni milliy madaniy identifikatsiya talablariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilmiy va siyosiy hamjamiyat oldida Yangilanayotgan O'zbekiston uchun milliy g'oyani ishlab chiqish vazifasini aniq belgilab berdi. Shu bilan birga, bugungi kunga kelib milliy g'oyani turli jihatlarini yoritib beruvchi tadqiqotlarga bo'lgan talab yanada oshdi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, bugungi kunda mamlakatimizda bunday g'oyaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlash joiz. Bu esa bilvosita bo'lsa-da, siyosiy partiyalar va uning dasturlariga ko'proq e'tibor qaratish zaruratini paydo qilmoqda.

Milliy g'oyaning bir yoki bir nechta yo'nalishda rivojlantirishda milliy identifikatsiya alohida o'rin tutadi. Konstruktivizm doirasida milliy identifikatsiya millatni ijtimoiy-madaniy hayotining eng muhim shakli deb tan olinadi. Va u muayyan xalq, millat yoki elatning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar va ijtimoiy-madaniy faoliyatning muayyan tizimi sifatida qaraladi. Shubhasiz, milliy identifikatsiyani shakllantirish keng ko'lami uyushgan ijtimoiy harakat bo'lib, milliy o'zlikni anglashda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Milliy o'zlikni anglash g'oyasi nuqtai nazaridan milliy identifikatsiyaning ma'naviy-axloqiy mezonlari belgilanadi, ya'ni jamoaviy hayotning muayyan tartibi, individual ong chegarasidan tashqaridagi semantik aloqalar tizimi belgilanadi va uni jamoaviy hamkorlikning boshqa sub'ektlari bilan o'zaro bog'laydi. Milliy identifikatsiyaning ma'naviy-axloqiy mezonlari uning semantik birligini belgilaydigan tarkibiy qismlar, o'ziga xos madaniy birliklardan iborat bo'ladi. Milliy g'oya-o'ziga xos xususiyati bilan boshqa dunyo sub'ektlari orasida muayyan muayyan xalq, millat yoki elatning umumiy xarakterini aks ettirishi kerak. Shu munosabat bilan, O'zbekiston milliy manfaatlarining eng muhim talabi mamlakatni jahon miqyosida o'ziga xos va mos o'rinni egallashga xizmat qilishi belgilanadi. Tashqi siyosatning vazifasi keng mintaqada bunday xalqaro munosabatlarni o'rnatish, O'zbekistonning dunyoviy davlat sifatida mustahkamlanishiga, huquqiy demokratik davlat bo'lib taraqqiy etishiga munosib hissa qo'shish bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda milliy g'oyaning ma'naviy-axloqiy muammolari va qadriyatlarini talqin qilishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar turli xalqlarning jahon tarixida tutgan o'rnini o'rganishga qaratilmoqda. Shunday qilib, ma'lum bir ijtimoiy-madaniy jamiyatning ma'naviy-axloqiy va intellektual xususiyatlari g'oyaviy-mafkuraviy o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'zgarib boradi.

Yangi milliy g'oya birinchi navbatda, siyosiy va madaniy funksiyani amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan kuchli xalq ta'limi tizimini rivojlantirish orqali yanada mustahkamlanadi. Ikkinchidan, global inqiroz sharoitida davlat hokimiyatiga bo'lgan nafaqat ishonchni kuchaytiradi balki ezgu maqsadlari sari xalqni safarbar etadi. Ya'ni milliy g'oya har bir davlatning milliy rivojlanish vektorining paydo bo'lishi uchun munosib shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi. Uchinchidan, milliy g'oya kishilarning ijtimoiy-moddiy farovonligiga erishish uchun muayyan maqsad va vazifalarni belgilab beradi.

Bugungi global moliyaviy inqiroz sharoitida ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatda mafkuraviy birlikni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Faqat kuchli milliy g'oyagina davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va muhim iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, etnik muammolarni hal etishda o'ziga xos o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, milliy g'oyani siyosiy maqsad va vazifalarga mos holda shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida milliy g'oya mavjud mafkuraviy va siyosiy resurs sifatida jamiyat talablariga to'liq javob berishi va xalq manfaati va davlat qurilishini yuksaltirishda ustuvor o'rinni egallashi lozim.

Milliy g'oyani rivojlantirish borasidagi tajribalar jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda va ijtimoiy-madaniy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini, o'zbek xalqi milliy mentalitetini, milliy siyosiy an'analarini oqilona rivojlantirish zaruratini paydo qilmoqda. Shu boisdan ham yangi O'zbekistonning ma'naviy va mafkuraviy asoslari modelini ishlab chiqish, demokratik boshqaruv tizimini isloh qilishning umummafkuraviy talablarini va milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini birlashtiradigan milliy g'oyani rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy g'oyani rivojlantirish muammosiga bo'lgan qiziqish tabiiy ustuvorlikka ega bo'lib bormoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. Albatta, bunday g'oyani shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari, g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillari, uni zamonamizning siyosiy mafkuralari, jahon taraqqiyoti ehtiyojlari bilan bog'lash mexanizmini ishlab chiqish, bu mamlakat va xalqning muhim milliy-davlat strategiyasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy g'oyaning konseptual tarkibiy qismlarini yangidan tizimlashtirish, uning asosidagi umumjahon talablarini isloh qilish va optimal integral mafkurani ishlab chiqish uchun siyosiy jarayonning ijtimoiy-madaniy asoslarini mamlakatdagi murakkab transformatsion jarayonlardagi g'oyaviy-mafkuraviy o'zgarishlar bilan bog'lash dolzarb ahamiyatga ega. Zero, A.Begmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, jumladan, ishlab chiqarish ob'ektlarining xususiyashtirilish, mulkdorlar qatlaminin vujudga kelishi, hissadorlik jamiyatlarining paydo bo'lishi, odamlarning mulkka va bir birlariga munosabatlaridagi o'zgarishlar korporativ madaniyat va korporativ boshqaruvning mohiyati, ko'rinishlari, milliy jihatlarini chuqur tahlil qilishni taqazo etadi".

XULOSA

Insoniyat umumiy ma'naviy - axloqiy poydevor yaratish zarurligini anglashi uchun birinchi navbatda o'zining shaxsiy ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini qondirishi va o'ziga xos g'oyaviy-mafkuraviy maqsadga ega bo'lishi kerak. Shundagina u hayotiy qadriyatlarni oqilona baholashi mumkin. Shuning uchun, ma'naviyat va mafkura sohasidagi mavjud muammolarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish sohasidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, yangilash, fundamental ma'naviy-axloqiy muammolarni ilmiy nuqtai-nazardan asoslash, uning ijtimoiy muhit bilan aloqasini, shaxs ongini yuksaltirish bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy-mafkuraviy mezonlarini yangilash vazifasini bajarish muhim ahamiyatga ega.

Inson huquqlari aniq tarixiy va milliy o'ziga xos sharoitda tabiiy ravishda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham o'zbek ma'naviy-huquqiy merosining ildizlarini chuqur bilish va idrok etish, O'zbekistonda inson huquqlarini o'ziga xos tushunishni va holatini talqin qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Inson baxti va kelajagining asosi mehnatda ekanligini ta'kidlab, agar inson taqdirga ishonib ishlamasa, u yangilashadi, bunday odam aqlsizdir, deydi. Shu bilan birga u odam o'z g'ayrati va harakati bilan maqsadiga erisha oladi, deb aytgan edi. O'zbek xalqi asrlar mobayinida avaylab saqlab, sayqallab kelgan o'z milliy urf odatlari, rasm-rusumlari, udum va an'analari, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi va madaniyati, e'tiqodi, bir so'z bilan aytganda madaniy va ma'naviy dunyosi bilan ajralib turadi. Buyuk allomalarimiz umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon huquqiy sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularning boy madaniy-huquqiy merosi hozirgi mustaqil huquqiy taraqqiyotimizning mustaqil poydevori bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023.
2. Мирзиёев Ш.М. "Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси". – Т.: Ўзбекистон, 2022. – б. 112.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Саидолимов С. Проблемы обеспечения безопасности в Центральной Азии. -Т.: Академия, 2003. –С. 125.
5. Шанхайская организация сотрудничества (Шанхай, 14-15 июня 2001г.). Алматы: Центр внешней политики. Источник: анализа, -2001. –С. 10-11.
6. Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Т.: Академия, 2006. – Б. 24.
7. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi:o'quv-uslubiy qo'lanma / tuzuvchilar: Sh.To'raev, O.Muhammadiyeva.– Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2016.–272 b.
8. Nazarov Q.N. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi) : tajribaviy qo'llanma / mas'ul muharrir X.O.Shayxova. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.–384 b.
9. Nazarov Q. Falsafa asoslar. –Toshkent:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012.–808 b.
10. Бегматов А., Хамидуллин Б., Бўтабоев М. Корпоратив маданият ва корпоратив бошқарув.-Т.: Академия, 2007. -3-бет.